

“YASHNOBOD” INNOVATSIYA TEXNOPARKI: G‘OYADAN ISHLAB CHIQARISHGACHA

Innovatsion iqtisodiyot drayveri yurtimiz taraqqiyotiga qanday xizmat qilmoqda?

S. AKRAMOV,

*“Yashnobod” innovatsiya texnoparki rezidentlarga
xizmat ko‘rsatish bo‘limi bosh mutaxassisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda “Yashnobod” innovatsiya texnoparkining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Texnopark rezidentlariga yaratilgan shart-sharoitlar, imtiyozlar, eksteritorial tamoyil asosidagi faoliyat hamda ishlab chiqarish, eksport va yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha erishilgan iqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlil qilingan. Shuningdek, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish va innovatsion ekotizimni rivojlantirish istiqbollari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion iqtisodiyot, texnopark, tijoratlashtirish, rezident, eksport salohiyati, eksteritoriallik tamoyili, ilmiy ishlanmalar, Yangi O‘zbekiston.

Bugungi Yangi O‘zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish, ilm-fan yutuqlarini amaliyotga keng joriy etish, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishlarni tashkil etish va tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga davlat darajasida alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ushbu muhim jarayonda ilm-fan, texnologiya, tadbirkorlik va ishlab chiqarishni o‘zaro bog‘lovchi mustahkam ko‘prik — innovatsion texnoparklarning o‘rni beqiyosdir. Ana shunday nufuzli va amaliy samarador maskanlardan biri “Yashnobod” innovatsiya texnoparkidir.

Yuksak maqsadlar sari tashlangan ilk qadamlar

“Yashnobod” innovatsiya texnoparkining faoliyati zaminida aniq va ulug‘vor maqsad yotadi: innovatsion g‘oyalarni amaliy loyihalarga aylantirish,

ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, yangi turdagi xaridorgir mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish hamda innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash.

Faoliyati davomida texnopark tomonidan innovatsion loyihalarni amalga oshirish istagidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tizimli ishlar yo'lga qo'yilib, ularga ishlab chiqarish va innovatsion faoliyatini rivojlantirish uchun barcha zarur sharoitlar yaratib kelinmoqda.

Raqamlarga murojaat qilsak: 2021–2026-yillar davomida 156 ta tadbirkorlik subyektiga rezidentlik maqomi berildi. Ular tomonidan kimyo texnologiyalari (38 ta), qishloq xo'jaligi (32 ta), o'simliklarni himoya qilish vositalari (27 ta), axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (16 ta), biotexnologiyalar hamda farmatsevtika va tibbiyot biotexnologiyalari (15 tadan) va qurilish materiallari (13 ta) kabi sohalarda innovatsion loyihalar amalga oshirildi.

Iqtisodiy samara: eksport va yangi ish o'rinlari

Mazkur loyihalarning amaliy samarasi ishlab chiqarish hajmi, eksport salohiyati va bandlik ko'rsatkichlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Birgina 2021–2026-yillar oralig'ida texnopark rezidentlari tomonidan jami 1 trillion 561 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan. Shundan 1 trillion 371 milliard so'mlik mahsulot ichki bozorda xaridorini topgan bo'lsa, 190 milliard so'mlik mahsulot xorijga eksport qilindi. Amalga oshirilgan ushbu innovatsion loyihalar natijasida 1 500 ta yangi ish o'ri yaratildi.

2026-yilning sentabr holatiga ko'ra, 50 ta korxona “Yashnobod” innovatsiya texnoparki rezidenti sifatida faoliyat yuritmoqda. Ushbu korxonalar orqali yana 1 500 ta doimiy ish o'ri saqlanib, so'nggi davrda 226 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan. Shundan 28,3 milliard so'mlik mahsulot Belarus, Rossiya va Qozog'iston kabi davlatlarga eksport qilingani mahalliy innovatsiyalarimizning xorijiy bozorlardagi o'ri ortib borayotganini ko'rsatadi.

Imtiyozlar va eksterritoriallik tamoyili

Texnopark rezidentlari faoliyatini rag'batlantirishda ularga yaratilgan iqtisodiy va tashkiliy imkoniyatlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, qonunchilikda belgilangan tartibda yer solig'i, mol-mulk solig'i hamda boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha taqdim etiladigan imtiyoz va yengilliklar tadbirkorlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Mazkur qo'llab-quvvatlash choralari natijasida ishbilarmonlar tejalgan mablag'larni ishlab chiqarishni kengaytirish, zamonaviy uskunalar xarid qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish hamda mahsulot turlarini ko'paytirishga yo'naltirishmoqda.

“Yashnobod” innovatsiya texnoparkining yana bir muhim jihati — eksterritoriallik tamoyili asosida faoliyat yuritish imkoniyatidir. Bu yondashuv innovatsion loyihalarni faqat Toshkent shahri hududida emas, balki respublikamizning barcha hududlarida ham erkin amalga oshirish, chekka hududlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy qilish imkonini bermiqda.

Kelajak sari qat'iy qadamlar

Bugun texnopark faoliyatida asosiy e'tibor faqat innovatsion mahsulot yaratishga emas, balki uning bozorini shakllantirish, mahalliyashtirish, eksport salohiyatini oshirish va yangi ish o'rinlari yaratishga qaratilmoqda. Shu jihatdan, u g'oyadan tayyor mahsulotgacha bo'lgan jarayonni qo'llab-quvvatlovchi yirik innovatsion ekotizim sifatida rivojlanmoqda.

Kelgusida texnopark faoliyatini yanada kengaytirish, yangi innovatsion loyihalarni jalb etish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, zamonaviy ishlab chiqarishlarni ko'paytirish, eksport geografiyasini kengaytirish hamda yuqori texnologiyali yangi ish o'rinlarini yaratish ustuvor vazifalardan bo'lib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti yangi g'oyalar, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion tadbirkorlik bilan chambarchas bog'liqdir. “Yashnobod” innovatsiya texnoparki esa ana shu amaliy maydonning ajralmas qismi sifatida innovatsion g'oyalarni real loyihalarga, loyihalarni esa mamlakat farovonligiga xizmat qiluvchi sifatli mahsulot, barqaror eksport va yangi

ish o'rinlariga aylantirishda davom etadi.

Ma'lumot o'rnida: "Yashnobod" innovatsiya texnoparki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyundagi PF-5068-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-iyuldagi 468-son qaroriga asosan tashkil etilgan.